


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2022- yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)

Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-mart oylarida (*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm*) **2665,7** ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Namangan shahrida **3335,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **125,1** %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Chust tumanida 1975,4 ming so'mni (74,1 %), Kosonsoy tumanida 2014,9 ming so'mni (75,6 %) Chortoq tumanida 2073,5 ming so'mni (77,8 %), tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)




Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm


(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	2266,7	2665,7	117,6
Namangan sh	2704,5	3335,0	123,3
tumanlar:			
Mingbuloq	2089,5	2178,2	104,2
Kosonsoy	1909,2	2014,9	105,5
Namangan	2102,4	2523,0	120,0
Norin	2038,7	2184,1	107,1
Pop	1983,1	2374,4	119,7
To'raqo'rg'on	2419,9	2931,2	121,1
Uychi	2029,8	2389,1	117,7
Uchqo'rg'on	2150,8	2427,3	112,9
Chortoq	1768,0	2073,5	117,3
Chust	1781,9	1975,4	110,9
Yangiqo'rg'on	2170,5	2444,0	112,6

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2022- yil yanvar-mart, viloyat kor'satkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 772,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 123,2 % ga ko'paygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 764,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 125,3 % ga ko'paygan.

➤ **Savdo sohasida** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 981,3 ming soʻmni tashkil qildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 132,3 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 444,1 ming soʻmni tashkil qildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 128,3 % ga kamaygan.

➤ **Axborot va aloqa** sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 292,0 ming soʻmga toʻgʻri keldi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 123,0 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sugʻurta** faoliyati sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 6 094,7 ming soʻmni tashkil qildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 126,7 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 525,4 ming so'mni tashkil qildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ga oshdi.



➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 187,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 121,1 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 989,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 125,0 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)


	2021- y.	2022- y.
Namangan viloyati	2266,7	2665,7
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha		
 Sanoat	2251,0	2772,6
 Tashish va saqlash	1904,5	2444,1
 Savdo	2254,1	2981,3
 Axborot va aloqa	2676,0	3292,0
 Moliya va sug'urta	4809,9	6094,7
 Ta'lim	2272,3	2525,4
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1805,1	2187,0
 Qurilish	3003,2	3764,0
 Boshqa faoliyat turlari	2390,8	2989,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, % da.

(2022- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Namangan viloyati bo'yicha 2022-yil yanvar-mart oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati savdo sohasida **132,3 %**, tashish va saqlash sohasida **128,3 %**, Moliya va sug'urta sohasida **126,7 %**, qurilish **125,3 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **121,1 %**, ta'lim sohasida **111,1 %** kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-mart oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqqi, ming so'mda





Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat ish haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil 17- avgustdagi PF-6279-sonli farmoniga asosan 822,000 so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(69) 211-72-00